

OILADA KOMIL SHAXS SHAKLLANTIRISHDA MILLIY AN‘ANALAR, URF-ODAT VA MAROSIMLARNING O‘RNI

Axmedov Lazizbek Alijon o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti O‘zbek tili,

Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada komil shaxs shakllantirishda milliy an‘analar urf odat va marosimlarning o‘rni ko‘rib chiqiladi. Milliy urf odatlarning jamiyat hayotiga kirib borishi ularning ijtimoiylashuv jarayonida, dunyoqarashini tarkib topishida ijobiy ta‘sirlar ko‘rsatib o‘tiladi. Farzandlar tarbiyasida milliy qadryatlarni yoshlik chog‘idan ularga singdirib borish orqali komil shaxs tarbiyalash haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: komillik, tarbiya, shaxs, qadriyatlar, urf-odat, milliylik, milliy meroslar, odob-axloq.

РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ, ОБЫЧАЕВ И ОБРЯДОВ В ФОРМИРОВАНИИ

Ахмедов Лазизбек Алижанович

Андижанский институт сельского хозяйства и агротехнологий узбекский

язык, Преподаватель кафедры педагогики и физической культуры

Аннотация: В данной статье рассматривается роль национальных традиций, обычаев и обрядов в формировании совершенной личности в семье. Проникновение национальных традиций в жизнь общества оказывает положительное влияние на процесс их социализации, на формирование мировоззрения. В воспитании детей речь идет о воспитании совершенной личности путем привития им с юных лет национальных ценностей.

Ключевые слова: совершенство, воспитание, личности, ценности, традиции, национальность, , национальное наследие, этикет.

THE ROLE OF NATIONAL TRADITIONS, CUSTOMS AND RITUALS IN THE FORMATION OF A PERFECT PERSONALITY IN THE FAMILY

Akhmedov Lazizbek Alijan ugli

*Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology Uzbek language, Teacher of
the Department of pedagogy and Physical Culture*

Annotation: This article examines the role of Customs and rituals of national traditions in the formation of a perfect personality in the family. The penetration of national customs into the life of society shows positive effects in the process of their socialization, the content of their worldview. In the upbringing of children, there is talk of raising a perfect personality by instilling national values in them from the youth.

Keywords: perfection, upbringing, personality, values, customs, nationality, national heritage, etiquette.

Merosimizning asosiy qirralari, saboqlari asosida milliy istiqlolimizning mafkurasini yaratar ekanmiz, bunda asosan o‘zbek xalqining barcha xalqlar singari asrlar mobaynida saqlanib, sayqallanib kelgan milliy urf-odati, rasm-rusumi, udumi va an‘analari, yurish-turishi, g‘ururi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, dini, huquqiy ongi, ma‘naviy-axloqiy tushunchasi muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki bolalarimiz ana shu ko‘zga ko‘rinmas his-tuyg‘u va ong, tushuncha, ajdodlar xotirasi va uzviyligi ta’sirida ma‘naviy tarbiyalanadi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, O‘zbekistonning milliy mafkurasini yaratishga, uning asosiy qirralari va muammolari, mana shu muammolarni hal qilish borasida oldimizda turgan vazifalar haqida gapirilganda, avvalo, «asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib va ravnaq topgan milliy-madaniy an‘analarni va urf-odatlarni qadrlamaslik ma‘naviy tubanlik, o‘z tarixiga, ona zaminiga, tuprog‘iga hurmatsizlikdir. Boy, qadimiy va navqiron ma‘naviyatimiz

durdonalari milliy ma'naviy inqirozning oldini olishda, milliy ma'naviy saltanatimizni tiklamoliikda muhim omildir, tayanchdir,—deyiladi.

Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda ko'p asrlar davomida qo'llangan usul va vositalar, tadbir shakllari, urf-odat va an'analar, tarbiya haqidagi g'oyalar—hayotiy tajribalar o'zbek xalq pedagogikasida mujassamlashgan.

Urf-odat, an'analar hamisha ijtimoiy va shaxsiy hayotda erishayotgan yutuqlar va orttirilgan tajribani mustahkamlaydi, qaror topgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning qudratli quroli sifatida xizmat qiladi. Ular avlodga keksalarning ijtimoiy munosabatlarida erishilgan va ayni zamonda mavjud bo'lgan tajribalarni uzatish va mustahkamlash rolini bajarib kelgan avlod uni o'zlashtirib, yanada rivojlantirib, o'z tajribasi bilan boyitib yangi avlodga yetkazgan.

Urf-odat deganda an'ana sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tarbiya qoidalari (odat, rasm-rusum, taomillar) tushuniladi. Inson ruhida xilma-xil kechinmalar va kayfiyatlar uyg'onib, odamning o'zini anglashi, shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir qiladi.

An'ana esa, uzoq zamonlardan beri avloddan-avlodga, otalardan bolalarga o'tib davom etib kelgan urf-odatlar, axloq me'yorlari va qarashlar. Qoida hukmiga kirib qolgan tartib-odat va ishlar hisoblanib, bularning barchasi jamoatchilik fikri bilan himoyalanaadi.

Milliy qadriyatlarimizdan hisoblangan urf-odatlar, turli marosimlar, an'analar bugungi kunda respublikamizning mustaqilligini mustahkamlashda, milliy mafkurann yaratishda, yoshlarni ma'naviy tarbiyasida, jamiyatni rivojlantirishda, qolaversa, oilalar mustahkamliligini barqarorlashtirishda, undagi tarbiya masalalarini, milliyligini oshirishda muhim tarbiya vositasi sifatida xizmat qilishini har bir xonadon sohibi, har bir fuqaro yaxshi anglaydi.

Milliy an'analar, urf-odatlar, marosimlar bola tarbiyasi muammosini ijobiy xal qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda oilada bolalarni

ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalasida milliy an'analarimiz, urf-odatlarimizga e'tibor va ehtiyoj har qachongiga nisbatan kuchliroqdir. Chunki xalq pedagogikasi manbalarida mehnat, odob, ota-onalar ibrat, or-nomus, maishiy turmush, salomlashish odobi, marhumlarni xotirlash, xalq marosimlarida qatnashish, turli to'ylar va boshqa oilaviy an'analar aks ettirilganki, bularning barchasi hozirgi zamon yoshlarini milliy kayfiyatda ma'naviy etuk, axloqan pok, jismonan sog'lom, estetik didli, farosatli, aqliy kamolot egasi qilib tarbiyalashning muhim vositalari sifatida mujassamlangan.

Xalq an'analar, urf-odatlari atroflicha o'rganish, oilaviy hayot mazmuniga tatbiq etish bolalar ma'naviyatini shakllantirishda, samaradorlikni oshirishda muhim shart, ya'ni tarbiya metodi va vositalari (o'yin, mehnat, pand-nasihat, ta'sir etish, tushuntirish, rag'batlantirish va e'zozlash)ni unumli qo'llab kelayotgan oilalarda yaxshi natijalarga erishilayotganligini kuzatish mumkin. O'zbek xalqida bolalar bilan bog'liq juda ko'plab ibratli an'analar mavjud. Xalqimiz pedagogikasi bolalarga mehr-shafqat, ularni sezish, erkalash, parvarish qilish, ta'lim-tarbiya berish, ehtiyotlash kabi insoniy qarashlarni targ'ib qilib kelgan. Hozirgi davrda oiladada bolalar tarbiyasi uchun milliy urf odatlar va qadryatlarning o'zni katta ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Otaboyeva Z.G'. O'smirlarda vatanparvarlik tarbiya jarayonida ulardagi ijtimoiy faollikni keltirib chiqaruvchi omil. Экономика и социум. 11 (78) 301-304-b.
2. Azimova Z.E. Otaboyeva Z.G. Talabalardaklasterli metodi orqali xamkorlik madaniyatini rivojlantirish. Экономика и социум, 2024 4-2 (119) 66-69-b
3. Ziyoda Azimova Ergashevna, Zulfiya Otaboyeva G'ofurovna. Oliy ta'lim tizimida talabalar jamoasini ijtimoiy pedagogik-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish: oliy ta'lim tizimida talabalar jamoasini ijtimoiy pedagogik-psixologik. 210-214-b

4. . Otaboeva Zulfiya. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. Jurnal. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida hamkorlikni tashkil etish. 2023/5/26. 55-57-b
5. Зульфия Гофуровна Отабоева. Изучение теоретических аспектов кластеризации образовательного процесса и эффективного повышения практической деятельности. 2023. Conferencea. 81-83-б
6. Зульфия Гафуровна Отабоева. Взаимодействие преподавателей и студентов в учебном процессе Журнал. Universum: психология и образование.2021. 26-27-б
7. З.Ғ Отабоева. 2021. Шахс ривожланиши хакида тушунча. Журнал.Экономика и социум. 4-2 (83). 297-300-с
8. Otaboeva Z.G. Organizing pedagogical experimental work for the development of a culture of cooperation in the student community of higher education institutions. Экономика и социум. 2023. 285-288-b
9. . Inomova M. Oilada bolalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish. Toshkent, 1995
10. "Xalq pedagogikasi inson kamolotning asosi". 1-kitob, Toshkent, 1992
11. Mirtursunov 3. "O'zbek xalq pedagogikasi". T., Fan. 1973